

50

### III BOB.

## CMS – KONTENTNI BOSHQARUV TIZIMLARI

### TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR



1. OpenServer qanday dasturiy ta'minot?
2. OpenServer rasmiy saytining manzili qanday?
3. WordPress.com bilan WordPress.orgning farqli jihatlarini aytинг.
4. Ma'lumotlar bazasi qaysi tizim yordamida yaratiladi?
5. Domen nima?
6. WordPress.comdan nima maqsadda foydalaniladi?

## 15-dars. AMALIY ISH.

### WORDPRESSDA MAQSADGA YO'NALТИРILGAN WEB-SAYT YARATISH

### AMALIY TOPSHIRIQ



1. OpenServer rasmiy sayti <https://ospanel.io/> orqali kompyuter operatsion tizimiga mos o'rnatgichni yuklab oling va o'nating.
2. OpenServer lokal web-server dasturi bilan tanishib chiqing.
3. OpenServer lokal web-serverining menyusi orqali **Run server** tugmachasi yordamida serverni yuklang, **Restart server** orqali qayta yuklang, **Stop server** orqali server ishini to'xtating.
4. Maqsadga yo'naltirilgan sayt uchun, sayt mavzusidan kelib chiqqan holda, ma'lumotlar bazasini yarating. Masalan, sport sayti bo'lsa, db\_sport yoki sport.
5. WordPress rasmiy saytidan platformaning oxirgi versiyasini OpenServer lokal web-serverining loyihalar papkasiga (Папка с проектами) yuklab oling. D:\openserver\domains
6. Maqsadga yo'naltirilgan sayt uchun domenning nomini tanlang va uni lokal web-server ro'yxatiga qo'shing. Masalan, sport, sport.uz va b.
7. Brauzer yordamida domen nomiga kiring, WordPress platformasini o'rнating va saytning boshlang'ich ma'lumotlarini kiriting.